



STRUCTURE OF TROOPS DURING THE RULE OF THE BABURIDS

Shamsiddinov Ulugbek Nurmurodovich

Candidate of Military Sciences, Associate Professor, Lieutenant Colonel, Senior Lecturer-Associate Professor at the Training and Professional Development Center for Military Yeducators of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan

ABSTRACT	KEYWORDS
This article describes the composition, structure, types of troops, the positive aspects of officials during the rule of the Baburids in Middle Asia, of the Middle Ages.	Baburids, army, king, bodyguard, military troops, gun, cavalry, bullet, Indian area, Akbarshakh, kingdom, security service.

INTRODUCTION

HARBIY MA'MURIYAT

Sharq va g'arb mamlakatlarida boburiylar sulolasi haqida o'nlab ilmiy-tarixiy va adabiy asarlar yaratilgan. Bu asarlarning ko'plari boburiy shahzodalarning zamondoshlari tomonidan yaratilgan bo'lib, asar mualliflarining aksariyati usha davr voqealarida ishtirok etgan.

Boburiylar sulolasi o'zining 332 yillik tarixi davomida saltanatining qudrati va adolatli davlat boshqaruvi bilan dunyo axlini hozirgacha xayratga solib keladi. Bu ma'naviy me'rosni o'rganish va uni saltanat asoschisi bo'lmish bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Boburning ona vatanida targ'ib va tavsif yetish bugungi avlod, ya'ni biz uchun ham karz, ham farzdir. Zero ular yaratgan ma'naviy meros, ularning umumbashariy qadriyatlar xazinasiga qo'shgan ulkan hissasi bizning ham ma'naviy mulkimizdir.

Bu merosni holisona nazar bilan o'rganish, chuqur tahlil qilish, ulardan zarur xulosalar chikarish va bu ma'naviy boylikdan xammamizni bahramand qilish, uquvchida o'z vataniga mehr-muhabbat, uni sevib-ardoqlash hissini uyg'otadi, istiklol tuyg'usiga sadoqat va o'z halqi bilan fahrlanish tuyg'usini shakllantiradi. Zero, «Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi».

HARBIY TIZIM

Qo'shin tarkibi. Boburiylar saltanati o'rta asrlardagi Markaziy Osiyo musulmon Sharqida mavjud bo'lgan feodal davlatlardan biroz farq qilsa ham, bu imperiya Turkiston va uning atrofida joylashgan davlatlarning asrlar davomida mavjud bo'lib kelgan an'analari asosida tashkil yetilgan bo'lib, yagona hukmdor - podshoh tomonidan boshqariladigan, qat'iy markazlashgan, yirik harbiy-feodal davlat yedi. Bunday ulkan saltanatni faqat qudratli va temir intizom asosida qurilgan harbiy tizim vositasidagina boshqarish mumkin yedi. Shu bois saltanat hukmdori ixtiyorida hajman juda katta va qudratli muntazam lashkar saqlanardi. Harbiy qo'shinni muntazam ravishda ko'rikdan o'tkazib turish va uning

tizimini takomillashtirib borish hukmdorning asosiy vazifasi hisoblanardi. Qo'shin har yili maxsus kurikdan o'tkazib turilgan.

Hind tarixchisi V.D. Mohajanning ta'riflashicha, Boburiylar davlatida qurolli kuchlar asosan besh toifaga bulingan bulib, ular suvoriylar (otliq sarbozlar), jangchi fillar kavaleriyasi, piyoda askarlar, to'pchilar va o'qchilar (miltiqchilar) guruhidan tashkil topgandi. Shuningdek, ularga uncha ko'p bo'lmagan miqdordagi harbiy dengiz va daryo floti qushinlari hamrohlik qilardi. Har bir lashkarboshiga, hattoki vassal davlatlarning harbiy boshliqlariga ham maxsus unvon va huquqlar berilgan bo'lib, lavozimiga ko'ra ularga shoh xazinasidan maosh to'lanar yoki unga jog'ir (yer-mulk) ajratib berilardi. Har bir sarkarda o'z qo'shiniga yega bulib, unda mustahkam intizom o'rnatish, qo'shin saflarini to'ldirish, askarlar bilan harbiy mashqlar o'tkazish, qo'shin uchun qurol-aslaxa, kiyim-bosh va oziq-ovqat zaxirasini tayyorlash ishlari lashkarboshi zimmasiga yuklatilgan¹.

Akbarshoh saltanatidagi mohir sarkardalardan biri, o'z davrining yetuk ulamolaridan bo'lmish Abulfazlning «Ayni Akbariy» kitobida guvoxlik berishicha, suvoriylar qo'shini saltanatga buysunish darajasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'lingan:

«**Ahadi**» navkarlari. Bu guruhga mansub bo'lgan navkarlar yeng oliy toifaga mansub hisoblanar va faqat podshohning maxsus farmoni asosidagina harakatlangan. Ularga «Devonbegi» yoki «Baxshi» lavozimidagi harbiy mansabdor qo'modonlik qilar va bu qo'shinga navkarlar podshoh nomidan harbiy xizmatga olinardi. Ahadi navkarlariga yaxshi maosh to'langan. Agar oddiy otliq sarbozga 12-15 rupiy to'lansa, ahadi navkarlaridagi sarbozga 500 rupiy tulanardi. Ahadi navkarlari soni 7-8 ming atrofida bo'lar, Akbarshoh, davrida yesa ularning soni 12 ming kishiga yetkazilgan.

«**Barvardi**» navkarlari. Navkarlarning bu turi ham yeng mohir sarbozlardan iborat bo'lib, ularning o'z otlari bo'lmagan. Ulardan, asosan, mamlakat ichki tartibot ishlarida qurolli politsiya sifatida foydalanilardi.

«**Ko'maki**» navkarlari. Bu toifadagi navkarlar yesa zaxirada saqlanar va jang jarayonida zarur bulgan joylarga yordamga yuborilgan.

«**Dohili**» navkarlari. Harakatdagi muntazam armiyaning asosiy poydevorini mana shu toifadagi qo'shin tashkil yetgan. Bu turdagi navkarlar o'z qo'shiniga yega bo'lmagan lashkarboshilarga biriktirib quyilar va ularning otlariga ham maxsus tamg'a bosilardi. Bu toifadagi navkarlar podshoh nomi bilan harbiy xizmatga olinsa ham, harbiy xizmat davomida sarkardalar ixtiyorida bo'lgan. Navkarlarning bu turi juda katta miqdorda bo'lib, Akbarshoh davrida uning soni 25 ming nafar bo'lgan bo'lsa, Jahongir va Shoh Jahon hukmronligi davrida bu raqam 300 mingga yetkazilgan. Podshoh ixtiyoridagi ahadi qo'shini, mustaqil lashkarboshilarning dohili ko'shini, viloyatlar voliylarining ixtiyoridagi qo'shin hamda vassal davlatlardagi lashkar miqdori qo'shib hisoblansa, saltanatga qarashli umumiy kushin mikdori 440 ming nafarga yetardi.

Dohili askarlarining yeng yaxshi qismini suvoriylar tashkil yetib, ular otlarining sifati va miqdoriga qarab ham toifalanardi. Ular orasida «Borong'ir» toifasidagilar ot, qurol va kiyim-kechakni hukumatdan olardi. «Silador» guruhiga mansub sarbozlar yesa o'zlarining oti va quroli bilan harbiy xizmatga kelganlardan iborat bo'lgan².

¹ Zaxiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" o'zbek namunaviy bebaho asarlaridan. / Nashirga tayyorlovchi Porso Shamsiev / Yulduzcha/ T., 1989y.

² "Boburiylar saltanatida davlat boshqaruvi" / Nashirga tayyorlovchi G'ofurjon Satimov / O'zbekiston/ T., 2018y.

Kavaleriya. Boburiylar qo'shinining yeng yaxshi qismini kavaleriya tashkil yetgan. Kavaleriya quyidagi kislardan tashkil topgan:

1. Borong'ir. Borong'ir suvoriylari ot, qurol va kiyim-kechakni hukumatdan olardi.
2. Silador. Silador navkarlari yesa o'zlarining oti va quroli bilan kelganlardan iborat bo'lgan. Suvoriylar otlarining sifatiga qarab toifalarga ajratilgan. Boburiylar qushinida ko'prok turkiy va chopqir tozi otlari ardoqlanardi. Shu bilan bir qatorda, arabiy, forsiy, muzanna, yabu va jangla deb toifalanadigan otlardan ham foydalanilgan.

Suvoriylar uzlaridagi otlar miqdoriga ko'ra ham toifalanardi. Ikkita otga yega bo'lgan navkarlar «du aspa» (ikki otliq), bitta oti borlar yesa «yakaspa» (bir otliq) navkar deb yuritilardi. Ayrim xollarda ikki navkar bitta otdan foydalangan bulib, ular «nim aspa» (yarim otliq) deyilgan.

Piyoda askarlar. Jang jarayonida piyoda askarlardan ham unumli foydalanilardi. Ular ham, uz navbatida, miltiqchilar va qilichbozlarga ajratilgan. Ular kamon, uq-yoy va nayzalardan ham mohirlik bilan foydalanardi. O'qchilar ko'pincha qanujliklardan tanlangan. Jangga askarlardan tashqari xizmatkor qullar va suv tashuvchilar jalb yetilib, ular otboqarlik, chodir tikish kabi dastyorlik ishlarini bajarishgan.

Akbarshoh davrida piyoda askarlar jangda muhim ahamiyat kasb yetgan. Ular ikki toifaga ajratilgan: a) banduqchilar (miltiqchilar) va b) shamshirbozlar (qilichbozlar). Bundan tashqari, askarlar kamon, o'q-yoy va nayzalarni ham ustalik bilan ishlatardi.

Jangovar fillar. Boburiylar lashkarida jangchi fillar alohida mavqeda turar yedi. Fillar sifati va yegasining jangovar mahoratiga ko'ra yetti xil toifaga bo'lingan. Akbarshoh davrida mingga yaqin jangchi fillar saklanar va mamlakat bo'yicha ularning soni 50 mingga yetardi. Bengal viloyatida maxsus jangchi fillar kavaleriyasi saqlangan. Fillar jang qilish uchungina yemas, balki yuk tashishda ham foydalanilgan.

Artilleriya. Boburshoh Hindistonga juda kuchli artilleriyasi bilan kirib kelgan. Akbarshoh yesa qo'shinining bu turini yanada takomillashtirdi. Uning davrida ulkan zambaraklar tayorlandi va ishga solindi. Akbarshoh davrida shu bilan bir qatorda, filga yoki tuya o'rkachiga o'rnatib olib yursa bo'ladigan kichik to'plar ham ixtiro kilingan. Bu to'plarni boshqarish oson bo'lgani uchun jangda yaxshi samara berardi. Doktor R.P. Tripatinning yozishicha, Akbarshoh artilleriyasi Osiyoda turklar artilleriyasidan keyin turardi.

Boburiylar qushinining yeng ta'sirli kuchga yega bo'lgan qismi to'pchilar (artilleriya) bo'lib, harbiy qurolning bu turini Hindistonga birichi bo'lib Boburshoh olib kelgandi. Boburiylarning Hindistonni zabt yetishida ularni g'alabaga olib kelgan asosiy omillardan biri ham ularning to'plardan mohirlik bilan foydalanishlari bo'lgan yedi.

To'plar turli hajmda bo'lib, og'ir zambaraklarni fillar sudrab yurar, ixcham to'plarni yesa tuyalar o'rkachida olib yurilgan. Zambaraklar, asosan, podshohning maxsus qumondonligidagina jangga kiritilar, ayrim hollardagina sarkardalar qo'shini ixtiyoriga berilgan.

Harbiy dengiz ko'shini boburiylar davrida unchalik yaxshi rivojlanmagan. Harbiy dengiz va daryo flotidan, asosan, Bengal viloyatida foydalanilardi².

Boburiylar lashkarining diqqatga sazovor xususiyatlaridan biri shuki, harbiy yurishlar davomida dam olish uchun to'xtalgan joylarda chodirlar tikilardi. Bu chodirlardan hosil bo'lgan lashkargoh go'yo ulkan bir shaharni yeslata va hind tarixnavisi L. P. Sharmaning aytishicha 5 milyadan 20 milyagacha bo'lgan radiusdagi hududga yoyilardi. Bu shaharda 100-200 ming kishi istiqomat qilardi. Shunisi diqqatga sazovorki, chodir va o'tovlardan iborat bo'lgan bu ulkan harbiy shaharni barpo yetish uchun

to'rt soatgina vaqt berilgan. Harbiy intizomning mustahkamligi tufayligina boburiylar qo'shini hamisha raqibi ustidan g'alaba qozongan.

Mansabdorlar va ularning navkarlari. Har bir harbiy sarkardaga alohida mavqe (unvon) berilgan. Hattoki bosib olingan mamlakat (vassal)ning harbiy boshliqlariga ham unvon berilardi. Har bir sarkarda o'z qo'shiniga yega bo'lib, uning saflarini yangilash, harbiy mashqlar o'tkazish, harbiy intizom o'rnatish, sarbozlar uchun qurol-aslaxa, kiyim-bosh va oziq-ovqat tayyorlash ishlari ham uning nazoratida bo'lgan. Mansabdorlar kupincha o'z toifasidagi navkarlarni tayorlash bilan shug'ullanganlar. Har bir sarkardaga podshox tomonidan maosh to'lanar yoki unga jog'ir ajratib berilardi. «Podshoxnoma»da aytilishicha, Shoh Jahonning buyrug'iga binoan o'z yer-mulki hududida istiqomat qilayotgan sarkardalar o'ziga belgilangan lashkar miqdorining uchdan bir qismiga teng bo'lgan miqdorda navkar ushlab turishga haqli bo'lgan. O'z yer-mulkidan tashqarida, biroq Hindiston hududida turadigan sarkardalarga o'z lashkarining to'rtidan bir qismiga teng miqdorda, Hindiston hududidan tashqarida joylashgan sarkardalarga yesa o'z lashkarining beshdan bir qismini ushlab turishga ruxsat berilgan.

Harbiy mansabdorlarning vazifalari va ularning mansabini oshirish ishlarini podshoh tomonidan belgilangan. Ularga davlat xazinasidan maosh belgilanar, yer-mulk (jog'ir) berilsa, uning mulkidan soliq undirish huquqi markaziy hukumat idorasi hodimlariga berilardi. Tuplangan soliq mulk yegasi bulgan harbiy mansabdorlarga berilib, uning maoshidan ushancha miqdordagi mablag' chegirib kolingan. Ularga 12 oy mobaynida uzluksiz maosh tulanardi. Har bir harbiy mansabdor o'z navkarlariga davlat hisobidan maosh berardi.

Akbarshoh davrida harbiy otlar va fillarga tamg'a quyish joriy kilingandi. Bu ish bilan alohida «Dog' mahali» deb atalgan bo'lim hodimlari shug'ullangan. Har bir ot va filga harbiy boshlig'i va podshohning tamg'asi bosilgan. Ko'shin har yili yoki uch yilda bir marta podshoh, shaxsiy kurigidan o'tkazilardi. Akbarshoh davrida harbiy ishlarni takomillashtirishga katta ahamiyat berilgani uchun bu qo'shin kudratli, intizomli va yengilmas kuchga aylangandi. Ayniqsa, armiyani boshqarishda harbiy mansabdorlik tizimi juda qo'l kelgan. Hind tarixchisi doktor R.P. Tripatining yozishicha, Akbarshoh kushini «G'olib va samarador» deb atalgan. Uning qushini Bobur armiyasidan ham yaxshiroq tuzilgan bo'lib, Yevropada mashhur bo'lgan turk sultoni Sulaymon lashkariga bas kelardi³.

Xulosa qilib aytganda, O'rta asrlardagi Markaziy Osiyo musulmon Sharqida hukumronlik qilgan Boburiylar saltanatining harbiy tizimi, qo'shin tarkibi, qo'shin turlari, harbiy mansabdorlar tizimi va ularning navkarlari hamda lashkarining diqqatga sazovor xususiyatlari Milliy armiyamizning istiqboliy islohatlar yo'lida jangovar tayyorgarlikning takomillashtirish borasida qo'llash va oliy harbiy talim mussasalarida yosh avlodga harbiy boshqaruv faoliyati bo'yicha ta'lim berish jarayonida oqilona foydalanish maqsadga muvoffiqdir.

Foydalangan adabiyotlar

1. Zaxiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" o'zbek namunaviy bebaho asarlaridan./ Nashirga tayyorlovchi Porso Shamsiev /Yulduzcha/ T., 1989y.

³ "Markazii Osiyo va Hindiston tarixida Boburiylar davri"/ G'ofurjon Satimov. G'afur G'ulom nomidagi iashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent — 2008y.

2. “Boburiylar saltanatida davlat boshqaruvi” / Nashirga tayyorlovchi G‘ofurjon Satimov /O‘zbekiston/ T., 2018y.
3. “Markazii Osiyo va Hindiston tarixida Boburiylar davri”/ G‘ofurjon Satimov. G‘afur G‘ulom nomidagi iashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent — 2008y.
4. Harbiy yensiklopedik lug‘at Moskva.:, 1983 y.